XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 15-yanvar VII-25-2-12-170-K/26 Bog‘ot tumani

Bog‘ot tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga hamda noruda qurilish materiallari (sementdan tashqari) uchun belgilangan qat’iy stavkalarga koeffitsiyentlar miqdorini qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlariga hamda Bog‘ot tumani Soliq inspeksichsining 2025-yil 20-dekabrdagi 16-14658-sonli xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bog‘ot tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda Bog‘ot tumani Soliq inspeksichsining 2025-yil 20-dekabrdagi 16-14658-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bog‘ot tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i S.Axmedovga tadbirkorlar tomonidan suv resurslaridan foydalanganliklari uchun suv sarfining miqdori va summasini hisoblash mexanizmini joriy qilish vazifasi topshirilsin.

4. Ushbu qaror “Bog‘ot sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b (N.Qalandarov) hamda nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (B.Saparov) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **RO‘ZMATOV KAMOL BALTABOYEVICH**

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-25-2-12-170-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Bog‘ot tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.0	1.0	1.2	1.2

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-25-2-12-170-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	**Tuman (shahar)lar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Bog‘ot tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2